

Muallif: Namangan viloyat Mingbuloq tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 43 – umumiy o'rta ta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi
Qaxorova Gulchexra

10-sinf.

IV-chorak test savollari.

1. Tur ichida sodir bo'ladigan, yangi populyatsiya, kenja tur, tur paydo bo'lishiga olib boradigan evolyutsion jarayonlar deyiladi.

- A) Makroevolyutsiya B) Mikroevolyutsiya C) Alohidalanish D) Genlar dreyfi

2. Evolyutsiyaning eng kichik birligi?

- A) Tur B) Populyatsiya C) Molekula D) Hujayra

3. Ekologik alohidalanish natijasida umumiy areal doirasida qaysi organizmlarning 5 ta turi kelib chiqqan?

- A) Qig'ovul B) Zag'izg'on C) Mayna D) Chittak

4. Tur paydo bo'lishining qaysi tipida qit'alarining surilishi, tog' hosil bo'lishi, suv to'siqlari natijasida bir nechta alohidalashgan populyatsiyalar paydo bo'ladi?

- A) Simpatrik B) Ekologik C) Allopatrik D) Geografik

5. Hujayra tuzilishida, unda kechadigan jarayonlarni energiya bilan ta'minlashda asosiy o'rinni egallaydi.

- A) Oqsillar, nuklein kislotalar, lipidlar B) Uglevodlar, aminokislotalar, kraxmal
C) Glukoza, lipidlar, nuklein kislotalar D) Nukleotidlar, uglevodlar, aminokislotalar

6. Odam erisotlaridagi gemoglobin oqsili o'zaro o'xshash ikkita α va ikkita β zanjiridan tashkil topgan. α zanjirining har biri ... dan, β zanjirining har biri zanjiri ... dan aminokislota qoldig'idan iborat.

- A) 138 ta, 142 ta B) 141 ta, 146 ta C) 142 ta, 148 ta D) 141 ta, 149 ta

7. Sistematik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan turlarda mutatsiyalar soni qanday?

- A) Ko'p bo'ladi B) Umuman bo'lmaydi C) Kam bo'ladi D) Normal bo'ladi

8. Ontogenezda faqat ajdodlarning ba'zi bosqichlari tushibgina qolmay, ba'zan ularda kuzatilmagan o'zgarishlar ham ro'y beradi. Buni rus olimi A.N. Seversov o'zining qaysi nazariyasida isbotlab berdi?

- A) Filogenez B) Ekssiziya C) Divergensiya D) Filoembriogenez

9. Chigitdan ungan madaniy g'o'za navlarida oldin yaxlit plastinkali, keyinchalik bo'lakli barglar hosil bo'ladi. Qaysi yovvoyi g'o'za turlarining poyasidagi barcha barglar yaxlit plastinkadan iborat?

- A) Raymondiy, klotshianium B) Ravilda, Klotshianium C) AN-402 D) Yulduz

10. Bajaradigan funksiyasidan qat'i nazar tuzilishi va kelib chiqishi jihatidan bir-biriga o'xshash organlar organlar deb ataladi?

- A) Analogik B) Gomologik C) Rudiment D) Atavizm

11. I- Analog organlar va II-Gomologik organlarni juftlang?

a-bilak; b-kaktusning tikani; c-tirsak; d-do'lananing tikani; e-no'xat gajaklari; f-boshoyoqli molyuskalar ko'zi.

- A) I-a, d, c; II- b, e, f B) I-a, c, e; II- b, d, f; C) I-b, d, f; II- a, c, e; D) I-b, e, f; II- a, d, c

12. Ogohlantiruvchi rang qaysi organizmlarga tegishli?

- A) Tillaqo'ng'iz, qovoqari, beshiktebratar B) Tugmachaqo'ng'iz, tukliari, ninabaliq;
C) Xonqizi, tillaqo'ng'iz, belyanka D) Tillaqo'ng'iz, qovoqari, tugmachaqo'ng'iz

13. Aramorfoz tipidagi yuksalishlarni aniqlang?

- A) Yopiq urug'lilarning kelib chiqishi, spora bilan ko'payishdan urug'dan ko'payishga o'tish
B) Odam parazitlari, cho'chqa solityori, tasmasimon chuvalchanglarda ichak bo'lmasligi
C) Suyakli baliqlar har xil tur vakillarining tana shakli, rangi, suzgich qanotlari tuzilishining o'ziga xosligi
D) Organizmlarning o'troq yoki parazit holda hayot kechirishga moslashuvi

14. O'pka bilan nafas oluvchi hayvonlarning kelib chiqishi evolyutsiyaning qaysi yo'nalishiga tegishli ekanligini aniqlang?

- A) Umumiy degenaratsiya B) Aromorfoz C) Idioadaptatsiya D) Adaptatsiya

15. Panspermiya nazariyasida qanday g'oya ilgari surilgan?

- A) Yerning ilk rivojlanishi davrlarida undagi iqlim sharoitlari hozirgi zamondagiga nisbatan juda katta farq qilgan
B) Tirik organizmlar o'z-o'zidan notirik tabiatdan paydo bo'lgan
C) Hayot mangu mavjuddir va u bir sayyoradan ikkinchi sayyora ko'chib yuradi
D) Hayot faqat hayot bo'lmagan sharoitlardagina kelib chiqadi

16. A.I.Oparin fikriga ko'ra, oqsil molekullari hosil qilgan.

- A) Protobiontlarni B) Kolloid birikmalarni C) Birlamchi hujayralarni D) Kofermantlarni

17. Dastlabki tirik organizmlar bakteriyalar hamda ko'k-yashil suvo'tlari qaysi erada paydo bo'lgan?

- A) Proterozoy B. Paleozoy C) Arxey D) Mezozoy

18. Paleozoy erasining ordovik davrida qaysi organizmlar paydo bo'lgan?

- A) Yashil, qo'ng'ir, qizil suvo'tlari, boshoyoqli, qorinoyoqli molluskalarning xilma-xilligi ortgan
B) Qalqondor baliqlar paydo bo'lgan
C) Qirqquloqlar, qirqbo'g'imlar, plaunlardan dastlabki o'rmonlar hosil bo'lgan
D) Uchuvchi hasharotlar - suvaraklar, ninachilar rivojlangan

19. Kaynozoy erasida qaysi tirik organizmlar avj olib rivojlangan?

- A) O'simliklar, qushlar sudralib yuruvchilar.
B) Hasharotlar, suvda hamda quruqlikda yashovchilar
C) Qushlar, sudralib yuruvchilar, sutemizuvchilar
D) O'simliklar, hasharotlar, qushlar, sutemizuvchilar

20. Qadimgi Paleoantrop odamlarga xos xususiyatlarni aniqlang?

- A) Bo'yi 155- 165 sm, ular jamoa bo'lib yashaganlar
B) 50-60 ming yil avval paydo bo'lgan, bo'yi 180 sm
C) Bo'yi 170 sm, toshdan qurollar yasagan, olovdan foydalanishni bilgan
D) Murakkab qurollarni yasay olganlar, uy qurganlar.

21. Odam irqilariga tegishli bo'lgan xususiyatlarni juftlang?

- I-Yevropoid II-Mongoloid III-Negroid
a - sochlari sarg'ish yoki qo'ng'ir b - sochlari tekis, ko'zlari qo'y ko'z d - burni keng va yassi e - odamlarning terisi qoramag'iz f-erkaklarida soqol - mo'ylovlari yaxshi o'sadi
g - qalin lablari bo'rtib chiqqan.

- A) I-a,f; II-b,e; III-d,g. B) I-b, g; II-d, a, III-e, f. C) I-b,d; II-a,f; III-e,g; D) I-a,d; II-e,g; III-b,f.

22. Qaysi davrda iqlim o'zgarishi natijasida qirqquloqlar va ochiq urug'lilar kamaygan va yopiq urug'li o'simliklar ko'paygan?

- A) Yura davrida B) Trias davrida C) Perm davrida D) Bo'r davrida

23. Toshko'mir davrida iqlim qanday bo'lgan?

- A) Iqlim birmuncha quruq va sovuq bo'lgan B) Iqlim mo'tadil bo'lgan
C) Iqlim nam, havoda karbonat angidrid ko'p bo'lgan D) Yerning katta qismi muz bilan qoplangan.

24. Hayotning anorganik moddalardan abiogen molekular evolyutsiya natijasida hosil bo'lishi to'g'risidagi nazariyani yaratgan olimlarni aniqlang?

- A) S.Miller, S Arranius B) Vernadskiy, F.Krik C) F.Reddi, L.Paster D) A.I.Oparin, J.Xoldeyn

25. Idioadaptatsiyaga misol keltiring?

- A) Qushlar yordamida chetdan changlanish, meva va urug'larning tarqalishi
B) Parazit chuvalchaglarning so'rg'ichlari bo'lishi
C) Assidiya lichinkasining koloniya hosil qilishi
D) O'simlik va hayvonlarni hayot faoliyatining murakkablashuvi

Test javoblari

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25
Javob	B	B	D	C	A	B	C	D	A	B	B	D	A	B	C	B	C	A	D	A	A	D	C	D	A